

## О'ZBEKISTON HUDUDIDAGI QADIMGI DAVLATLAR RIVOJLANISHINI DAVRLARGA BO'LINISHI

*Otarbaeva Malika Ongarbaevna*

*Berdoq nomidagi QDU tarix ta'lim yo'nalishining  
2-boshqish talabasi*

**Annotatsiya:** Ushbu moqalada O'zbekiston hududida dastlabki davlatchilikning qaror topishi, ularning rivojlanish bosqichlari va ilk davlatchilikning yakunlanishi haqida so'z etiladi.

**Kalit so'zlar:** Davlatchilik, sòngi bronza, Jarqòton, Bakriya, So'gd, Xorazm, Ahomaniylar, satrapliklar, Aleksandr Makedonskiy, Spitamen, Grek-Bakriya, sak qabilalari, yueshji-toxarlar, Qang, Kushan, Parfiya imperiyalari.

Davlatchilikning ilk shakli qaror topishi O'zbekistonning janubida tarqalgan sòngi bronza davrining o'troq-dehqon madaniyatida yuz berdi. Ularning yakunlanishi O'rta Osiyada yangi eraning III asr birinchi yarimida bòlgan Kushan va Parfiya imperiyalar halokati bilan deyarli bir vaqtga to'g'ri keladi. Qang davlati taxminan o'sha paytta inqirozga ushiraydi.<sup>1</sup>

O'rta Osiyadagi Ikki daryo oralig'ida qadimgi davrda davlatchilik evolyuciyasining miloddan avvalgi II ming yillik ikkinchi yarimi, miloddan avvalgi III asrdan, yangi eraning IV asr oralig'idagi vaqtni qamrab olgan birnecha davrlarni ajiratib kòrsatish mumkin.<sup>2</sup>

Birinchi davr-miloddan avvalgi II ming yillikning ikkinchi yarimi- O'zbekiston janubida embrional shaklda davlatga o'xshas tuzilmaning qaror topishi. Davlatning bunday namunasini Jarqòtonda o'z aksini topgan deyish mumkin. Jarqòton bronza davri shahar kòrinishiga ega bòlib, qal'a va aholi turor joy qismidan iborat bòlgan.<sup>3</sup>

Ikkinchi davr-miloddan avvalgi I ming yillik boshi, miloddan avvalgi 539-yilda Bakriya, So'gd, Xorazm tarixiy-madaniy viloyatlarning shakllanishi. Ularda siyosiy hokimiyat tizimining shaxobshali tizimiga ega bòlgan davlatchilikning ilk shakllarini kòrish mumkin. Jumladan, "Avesto" dan o'rin olgan ma'lumotlar ham bunnan dalolat beradi. "Avesto" ta "nyman" (uy-oila), vis(uru'g, uru'g manzilgohi), zantu(qabila), daxyu(viloyat, mamlakat), shuningdek har xil oliy hukimron shaxslar, mamlakat, viloyat egalari (daxyupatlar), hukimdorlar, (sastrlar) ham boshqalar<sup>4</sup> eslatiladi.

Qadimgi Bakriya va "Katta Xorazm" potsholiklariga o'xshash yirik hududiy yoki saklarda bòlgani singari (Zarina, Tòmaris) ayol podsho boshchiligidagi qabilalar konferenciyasi ham xuddi shu paytta kelib chiqqanligi ham ehtimoldan yiroq emas.

Uchinchi davr-miloddan avvalgi 539-yil va miloddan avvalgi 330-yil Ahomaniylar bosqini va Òrto Osiyoning Ahomaniylar davlati tarkibiga kirishi tufayli kelib chiqqan mahalliy davlatchilik rivojlanishidagi tanaffus.

Ikki yuz yil davomida Òrto Osiyo janubi Ahomaniylar saltanati tarkibiga kirgan. Uning butun hududi satraplarga bòlingan. Satraplar Ahomaniylar podsholari g'azinasiga kumush hisobidan tavon tòlab turishgan. Geradotning " Tarix" asarida satrapliklarning podshoga tòlaydigan soliqlari mu'g'dori keltirilgan edi. Òrta Osiyadagi satraplikdan uchtasi- Bakriya, So'gd, Xorazm tòliq yoki qisman Òzbekiston hududida joylashgan edi. Saltanatning halokatga uchirishi Aleksandr Makedonskiy kelishi bilan yuz berdi. Aleksandr Makedonskiy miloddan avvalgi 330-yilda Ahomaniylarning asosiy kuchlarini tor-mor etib, Òrta Osiyo hududiga Ahomaniylar davlatiga oxirgi talabgor-Baktriya satrapi Bessning izidan quvib kirdi. Aleksandr Makedonskiy Òrta Osiyani bosib olishga uch yil( miloddan avvalgi 330-327-yillar) sarflagan. Òrta Osiyo xalqlari, ayniqsa Spitamen boshchiligidagi so'g'dlar uning qoshinlariga qattiq qarshilik kòrsatgan.

Tòrtinchi davr - miloddan avvalgi IV asr oxiri, miloddan avvalgi II asrning ikkinchi yarimi boshi- Aleksandr Makedonskiy bosib olgannan boshlab, ellinlar siyosiy hukimronligi oxirigacha(Grek-Baktriya podsholigining qulashi). Bir vaqtning o'zida mahalliy davlatchilikning tiklanish jarayoni yuz bergan: miloddan avvalgi IV asr oxirgi choragida Xorazmda podcholik paydo bòladi. Arrian asarlaridan ma'lumki, miloddan avvalgi 329-yilda Maroqandda Aleksandr Makedonskiy ittifoqchilik munosabatini o'rnatish uchun kelgan Xorazm shohi Farasmanni qabul qiladi.

Miloddan avvalgi III asr oxirida-miloddan avvalgi II asrda Buxorada, Davon(Farg'ona), So'gdida alohida mulklar shakllanadi. Ehtimolki, aynan shu davrda keyinchalik tarkibiga deyarli butun Òrta Osiyadagi Ikki daryo oraligi kirgan Qang' davlati qaror topishi yuz berdi.

Mil.avv. 323 yilda Aleksandr Bobilda to'satdan vafot etdi. Uning vafot etishi bilan davlatdagi markazdan qochuvchi kuchlarning harakatlari faollashuvi natijasida Aleksandr tuzgan davlat parchalanib uning o'rniga nisbatan barqarorroq bo'lgan davlat uyushmalari paydo bo'ladi. Ta'kidlash lozimki, Aleksandr davlatining parchalanishi va uning xarobalarida yangi davlatlar tizimining paydo bo'lishi tinchlik yo'li bilan emas balki, Aleksandrning Makedonskiyning yaqin sarkardalari –diadoxlar o'rtasidagi tinimsiz urushlar tufayli bo'lib o'tdi. Diadoxlar o'rtasida 40 yildan ziyodroq davom etgan jangu-jadallar natijasida Aleksandr mulklari bo'lib olinadi. Aleksandr Makedonskiy mulklariga egalik qilish shu bilan yakunlandiki, mil.avv. 306-yilda nisbatan kuchli bo'lgan diadoxlar – Antigona Birko'zli, Demetriy Poliorket, Ptolomey Lag, Lazimax, Salavka, Kassandrlar o'zlarini podsho deb e'lon qildilar hamda bu bilan Aleksandr davlati xarobalarida o'z davlatlarini barpo etishni ma'lum qildilar. Shu tariqa tarix sahnasida G'arb va Sharq an'analarini uyg'unlashtirgan ellinistik davlatlar

paydo bo'ldi. Ana shunday yirik davlatlardan biri-Salavkiylar davlati edi. O'рта Osiyo janubi ham Salavkiylar davlati tarkibiga kirgan. Biroq, III asr o'rtalaridayoq Salavkiylarning Baktriyadagi satrapi metropologiyaga qarshi qozgalon kòtaradi va fanda Grek-Baktriya deb nom olgan mustaqil davlat tashkil etadi. Tadqiqotchilar Yunon-Baqtriya davlati paydo bo'lgan turli sanalarni belgilaydilar (mil.avv. 256, 250, 248 va 246-145 yillar).<sup>5</sup>

Grek-Baktriya podcholari sak qabilalari( asiylar, pasinlar, sakaravrlar) sòngra xunnlarning zulimi ostida Baktriya kelgen yueshji-toxarlari zarbalari ostida qulaydi. Yueshji-toxarlar dastlab Shimoliy Baktriyaga( O'zbekistonning hozirgi Surxondaryo viloyati va Orqa Tojikiston) joylashadilar, sòngra esa Baktrada ( hozirgi orqa Afg'onistondagi Balx) poytaxtga asos solib butun Bakriyani bosib oladilar. Ular alohida mustaqil mulklardan iborat bòlgan oziga xos konfederativ tiptagi davlat barpo ettilar.

Miloddan avvalgi II asrda O'рта Osiyadagi Ikki daryo oralig'ida huddi shunga o'xshash Qan'g davlati shakllanadi. Qan'g davlatining markazi Far'gonaning poytaxti Yuan-Ching shahridan 200 li ( taxminan 1000 km) shimoli-g'arbda joylashgan.<sup>6</sup> Ushbu davlat, Xauxanshunning ma'lumotlariga kòra besh mulktan iborat bòlgan. Ularning har biri o'z tangalarini zarb etganlar. Bu ularning mustaqilligidan dalolat berardi.

Beshinchi davr- miloddan avvalgi II asr ikkinchi yarimi-yangi eraning birinchi asr boshi- mahalliy davlatlar: Qan'g, Xorazm podsholigi, Buxora, So'gd, Dovon mustahkamlanishi va yanada rivojlanishi, Yueshji davlatining qaror topishi va uning Gandxariga qadar yoyilishi. Ushbu mulklarning deyarlik har birida kumush yoki misdan yasalgan tanga zarb etilgan. (Dovon bundan mustasno). Dovon Xitoy manbalarida Ta Yuan(Da Van) deb ataganlar. " Da" -katta , "Van"-podshoh degan ma'noni bildiradi. Bu davlatda ushbu vaqtlarda 70 dan ortiq shaharlar mavjud bòlgan.<sup>7</sup> Mahalli so'gd, xorazm yozuvlarining paydo bòlishi tanga zarb qilish bilan birgalikda rivojlangan davlatning asosiy belgisi hisoblanar edi.

Oltinchi davr- yangi eraning I asr boshi-yangi eraning III asr birinchi yarimi- antik davrda mahalliy davlatchilikning ravnaq topishi. O'zbekiston janubining konfederativ Yueshji davlati asosida paydo bo'lgan qudiratli Kushan imperiyasi tarkibiga kirishi. Ikki daryo oralig'idagi davlatlarning mustahkamlanishi va yanada rivojlanishi. Chochda yangi mulkchilikning paydo bo'lishi va o'z tangalarini zarb qilishi, Xorazmda Afrigiylar sulolasining hokimiyat tepasiga kelishi, bu yerda sulolaviy boshqaruvning a'nanaviyligi. Bu, jumladan, davlat ramzi bòlgan tanganing orqa tomanida otliq suvariylar tasviri berilishi bilan ifodalanadi.

O'рта Osiya davlatlarida zarb qilingan davlat ramzi tam'ga va sulola belgilarining keng yoyilishi Garbiy o'lka, Sharqiy o'рта er mamlakatlari va Parfiya bilan diplomatik aloqalarining keng avj olishi bilan birgalikda davlat hokimiyatining barqoror va a'nanalarga ega bòlgan xususiyatidan dalolat beradi.

Miloddan avvalgi II asrning ikkinchi yarimida Xan Xitoyi Chjan-Syanning tashrifi tufayli òzi uchun Garbiy òlkani, ya'ni O'rta Osiyoni kashf etadi, miloddan avvalgi II asr oxiridan boshlab esa Òrta Osiya va Xitoy òrtasida muntazam diplomatikalik va savdo munosabatlari amalga oshiriladi. Civilizaciya tarixida birinchi marta Garb va Sharq davlatlarini birlashtirgan qit'alararo Buyuk yipak yòlining qaror topishi ushbu munosabatlarning buyuk yakuni bòldi.<sup>9</sup>

Mahalliy antik davrda (milodiy I asrda-II asr birinchi yarimi) Shimoliy Bakriya milodiy I asr birinchi yarimida yueshji uruqlaridan brining dohiysi Kudzulla Kadfiz tomanidan asos solingan Kushan imperiyasi tarkibiga kirgan. Ushbu davrda òzida mustaqil davlat ifodalangan Soǵd( Òzbekistonning Qashqadaryo va Samarqand viloyatlari) ehtimolki, u ham yueshji'lardan kelib chiqqan Girkond sulolasi tomanidan boshqarilar edi.

Xorazmda Afrigiylar hokimiyat tepasiga kelgan va 700-800 yil davomida hukimronlik qilgan. Buxora va Dovon( Farǵona), shuningdek, ehtimolki Choch mustaqil davlatlar edi. Transoksionning ushbu barcha mulklari Qanǵ davlati tarkibiga kirganligi ham istisno emas.

Milodiy III-IV asrlarda Òrto Osiyodagi qadimgi buyuk imperiyalar-Kushan va Parfiya imperiyalarning halokatga uchirashi kòplab mayda mustaqil davlatlarning paydo bòlishi, xionit va kidarit qabilalarining bostirib kirishi, qadimgi ijtimoiy formaciyaning emirilishi, iqtisodiyat, moddiy va ma'naviy madaniyatning muayyan darajada tushkunlikka yuz tutishi bilan tafsivlanadi.

Yuqaridagi ma'lumotlarga asoslanib, yakun sifatida shuni aytish joizki davlatimiz tarixi òzining uzoq òtmishiga ega. Shu bilan birga, Òzbekiston hududidagi ilk davlatchilikning paydo bòlishi va rivojlanishi davri ham bir muncha vaqtqa borib taqaladi. Tarixchilarimiz tarafidan esa bu rivojlanish davri boshqichlarga bòlib òrganilganligin kòrishimiz mumkin.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ртвеладзе Э.В. Эволюция художественной культуры и развитие государственности в Узбекистане // Санъат.-1998. N-1. 8-9 б
2. Ртвеладзе Э.В, А.Х.Саидов, Е.В. Абдуллаев. Қадимги Узбекистан стилизацияси: Давлатшилиқ ва ҳуқуқ тарихидан лавҳалар. Ташкент- 2001 48-53 бет
3. Sagdullaev " Òzbekiston tarixi" Toshkent-2019 81-bet
4. Лившиц В.А. Общество Авесты // ИТН-т.-1.-М., 1963 С 145-148
5. Òzbekiston davlatchiligi tarixi( òquv-uslubiy majmua) Namangan-2022 Z. Sh. Mahramidov 33-bet
6. Н.Я. Бичурин (Иакинф)Собрание сведений о народах,обитавших в Средней Азии в древние времена.// М.-Л.: Изд-во АН СССР. Т. I. 1950.
7. Holimboy Bobaev " Òzbek davlatchiligi tarixi" Toshkent-2004 93-bet
8. Ртвеладзе Э.В, Саидов А.Х Дипломатия стран Центральной Азии в древности // Московский журнал международного права-1999 N-1 С 118-137
9. Ртвеладзе Э.В "Великий шёлковый путь" Ташкент-1999
10. Biyimbetov, J. K. "Ismaylova GJ Insaniyatni jaña civilizatsiyaliq rawajlanivında informatsiyaliq urislardni insan ruwxiviyiligina tasiri." Global science and innovations (2020)